ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHḌA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

constructions (*post qilmoq* – "to make a post"), affixes attach to loanwords (*blogerlar* – "bloggers"), and communicative economy drives the use of concise sentences and imperatives (*Obuna bo'ling!* – "Subscribe!"). The author views this as evidence of the language's dynamic development and recommends corpus-based research into internet vocabulary.

Резюме. Статья анализирует влияние социальных сетей на узбекский язык на лексическом, морфологическом, синтаксическом, графическом и прагматическом уровнях. Заимствования из английского языка (*post, layk*) адаптируются к узбекской глагольной системе (*post qilmoq* – «размещать пост»), аффиксы присоединяются к заимствованным словам (*blogerlar* – «блогеры»), а коммуникативная экономия способствует активизации кратких предложений и императивов (*Obuna bo'ling!* – «Подпишитесь!»). Автор трактует это как проявление динамичного развития языка и рекомендует корпусное изучение интернет-лексики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OLQISH, DUO VA TILAK SO'ZLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Qurbanbayeva Nilufar Ilxamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
roman-german filologiyasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Madaniyatlararo muloqot ko'lamining kengayishi milliy etiket tizimlarini qiyosiy o'rganishni tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirdi. Muloqotning eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bu ezgu niyat izhori hisoblanadi va u o'zbek nutq madaniyatida uchta o'zaro bog'langan nutqiy akt – olqish, duo va tilak (alqov) sifatida voqelanadi. Bu alqovlar shunchaki nutq etiketi shakllari emas: ularda xalqning diniy tafakkuri, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar modeli va dunyoni idrok etish tarzi ham jamlangan. Ushbu maqolada mazkur alqovlar atamalar sifatida emas, balki ichki tafovutlarga ega keng qamrovli yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqiladi va uning ingliz lingvomadaniyatidagi muqobillari bilan qiyoslanadi.

Maqolaning nazariy asosi J.L. Ostin[1] hamda J.R. Syorlning[2] nutqiy aktlar nazariyasi va A. Vejbitskayaning[3] tabiiy semantik metatil yondashuviga asoslanadi. Lingvokulturologik tahlil usullari esa V.A. Maslova[4], V.I. Karasik[5], V.N. Teliya[6] va V.V. Vorobyov[7] ishlariga, o'zbek materialini pragmatik talqin qilish esa Sh. Safarov[8] asos solgan yo'nalishga tayanadi.

[1] Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 166 p.
[2] Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.
[3] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – 502 p.
[4] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
[5] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
[6] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
[7] Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 331 с.
[8] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.

Rus tilshunosligida tilak (pojelaniye) nutqiy aktini N.A. Ranix[1] qanday maqsadda aytilishiga ko'ra tavsiflagan; V.V. Pleshakova[2] ezgu tilak (blagopojelaniye) larning tipologiyasi va tarixiy shakllanishini ko'rsatib bergan; L.Yu. Zorina[3] esa dialekt materialida ularning xalq madaniyati bilan bog'liqligini ochib bergan. O'zbek folklorshunosligida olqish va qarg'ish janrlari dastlab B. Sarimsoqov[4] tomonidan tizimli tavsiflangan bo'lsa keyinchalik marosim olqishlari O.Safarov va D. O'rayeva[5] tadqiqotlarida keng ochib berilgan. Shunga qaramay, olqish, duo va tilakni yagona keng qamrovli tizim sifatida birlashtirib, o'zbek va ingliz tillarida ekvivalentlik va lakunarlik nazariyasi doirasida qiyoslash hozirga qadar maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan – mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shu jihatlarga asoslanadi.

Maqolada alqovlarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning ingliz tilidagi ifodalanishi bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi va tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, komponent, kontekstual-pragmatik tahlil va tavsiflash metodlari qo'llaniladi. Izlanishlar olqish, duo va tilak komponentlarining sinonim emasligini ko'rsatdi. Olqish asosan xalq og'zaki ijodi an'anasiga tayanadi, uning so'zlari qat'iy qolipga solingan va ohangdor bo'lib, jamoaviy marosimda ovoz chiqarib aytishga mo'ljallangan. («To'ylarga yetkazsin!», «Baraka topgur!»)[6]. Uning folklor janri maqomi o'zbek folklorshunosligida qarg'ish bilan juftlangan holda belgilangan.

Duo diniy-ilohiy yo'nalishga ega: so'zlovchi bu yerda iltijoni bevosita emas, Allohga murojaat orqali vositali tarzda ifodalaydi («Xudo xohlasa», «Illoyim, omin», «Alloh o'z panohida asrasin»)[7]. Duoning muhim belgisi – uning ijtimoiy-madaniy kuchga egaligi: nikoh to'yi, fotiha yoki janoza marosimi, kabi diniy amaliyotlar duoni marosim jarayonining majburiy unsuriga aylantiradi. Tilak esa dunyoviy va tuzilish jihatidan erkin, kundalik muloqotga xos birlik («Ishlaringiz yurishsin», «Yo'lingiz oq bo'lsin», «Omadingizni bersin»). Uchala tushunchani farqlovchi asosiy belgilar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. **Alqov tizimi tushunchalarining farqlovchi belgilari**

Alqov	Muqaddaslik darajasi	Shakliy barqarorlik darajasi	Illokutiv kuch manbai	Ustuvor qo'llanish vaziyati
Olqish	Diniy-marosimiy (folklor qatlamiga mansub)	qat'iy qolipli	jamoa an'anasi	to'y va jamoaviy marosimlar
Duo	Diniy-ilohiy	nisbatan qat'iy	ilohiy iroda	motam, fotiha, diniy amaliyot
Tilak	dunyoviy	erkin	individual xohish-iroda	kundalik muloqot

Yuqoridagi uchta tushunchani qanday vaziyatlarda qo'llashimizga ko'ra vazifalari ham o'zgaradi: to'y vaziyatida olqish ustuvor («Qo'sha qaringlar!»), motamda deyarli faqat duo qo'llanadi («Alloh rahmatiga olsin») va dunyoviy tilak etiket jihatidan nomaqbul, safarga kuzatishda duo va tilak aralashib keladi («Oq yo'l!», «Xudo yo'lingizni bersin»), farzand tug'ilganda olqish va duo birlashadi («Katta yigit (qiz) bo'lsin»), kundalik muloqotda esa tilak ko'proq qo'llaniladi. Demak, qaysi tushunchani tanlash vaziyatga ko'ra tanlanadi – bu alqov so'zlarining ichki grammatikasi mavjudligini tasdiqlaydi.

Bitta misolning batafsil tahlili buni yaqqol ko'rsatadi. «Alloh rahmatiga olsin»[8] duosi motam vazi-

[1] Ранних Н.А. Речевой акт пожелания и способы его выражения в русском языке: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01. – М., 1994. – 159 с.

[2] Плешакова В.В. Русские благопожелания: опыт типологии и истории: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1997.

3 Зорина Л.Ю. Вологодские диалектные благопожелания в контексте традиционной народной культуры. – Вологда: ВГПУ, 2012. – 216 с.

[4] Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg'ishlar // O'zbek folklori ocherklari. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 143.

[5] Safarov O., O'rayeva D. Marosim olqishlari haqida // «O'zbek marosim folklorini o'rganishning yangicha tamoyillari» mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 2007. – B. 15–18.

[6] Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg'ishlar // O'zbek folklori ocherklari. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 143.

[7] Jumanazarov U. «Oltin olma, duo ol!», «Duo – oltin emasmi?», «Qo'shgani bilan qo'sha qarisin» // Tarix haqiqati va xalq ijodi badiiyati. – T.: «Elmus Press Media», 2007. – B. 3–28.

[8] O'rayeva D. Motam olqishlari / O'zbek motam marosimi folklorining janriy tarkibi, genezisi va badiiyati: filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – T., 2005. – B. 42.

yatining majburiy birligi bo'lib, marhum haqida gap ketganda uni tilga olishning etiket sharti hisoblanadi; inglizcha «Rest in peace» yozma-epigrafik an'anaga, «My condolences» esa tiriklarga – aza egalariga qaratilgan. Ya'ni o'zbek tilida duo marhumga yo'naltirilgan bo'lsa, inglizchada yo yozuv janriga, yo muloqotda boshqa tinglovchiga ko'chgan: farq leksik emas, tinglovchining o'zgarishidadir. Xuddi shu qonuniyat «Qo'shganingiz bilan qo'sha qaringlar!» (nikoh to'yi) va «Umri bilan bergan bo'lsin!»[1] (farzand tug'ilishi) birliklarida ham kuzatiladi: o'zbek alqovi vaziyatga qat'iy biriktirilgan qolipli bo'lsa, inglizcha muqobillar yo erkin tuzilishli, yo umuman mavjud emas. Ingliz badiiy matnida bunday tilaklar turg'un formula sifatida emas, muallif tomonidan erkin tuzilgan gap sifatida keladi – bu ingliz alqov tizimidagi formulaviylikning zaifligini ko'rsatadi. Misol sifatida «God rest his soul» – «Xudo ruhini tinchlantirsin»[2], «I wish you to die tranquil» – «Sizga bu dunyodan tinchgina ko'z yumishingizni tilayman» hamda «May you rest in peace» – «Joyingiz jannatda bo'lsin»[3] olqishlarini keltirish mumkin.

Pragmatik jihatdan har uch akt ekspressivlar sinfiga mansub[4], biroq ularning illokutiv tuzilishi bir xil emas. Duoda muloqot uch ishtirokchini qamrab oladi – so'zlovchi, Alloh va tinglovchi; so'zlovchi bunda faqat vositachi bo'lib, ezgu tilakning ro'yobga chiqishini Allohdan so'raydi. Olqish va tilakda esa muloqot ikki tomonlama qoladi: olqishda so'zlovchi ortida jamoa an'anasi turadi, tilakda esa u faqat o'z nomidan gapiradi. Shu tariqa uch akt illokutiv kuch manbaiga ko'ra ham ketma-ketlik hosil qiladi: ilohiy iroda (duo) – jamoa an'anasi (olqish) – shaxsiy xohish (tilak).

Semantik jihatdan har uch komponentning zamirida universal o'zak yotadi: «men xohlaymanki, senga yaxshi narsalar bo'lsin»[5]. Milliy o'ziga xoslik shu o'zak ustiga quriladigan qatlamlarda namoyon bo'ladi: o'zbek alqovida «yaxshi narsa» ilohiy manba bilan bog'lanadi va ma'lum bir madaniy kod (baraka, rizq, qut) orqali to'ldiriladi, ingliz tilagida esa individual muvaffaqiyat tushunchalari (success, luck) ustuvordir. Xushmuomalalik nazariyasi nuqtai nazaridan[6] alqov birliklari suhbatdoshning e'tirof etilish ehtiyojini qondiradi va so'zlovchilar orasidagi yaqinlikni mustahkamlaydi.

Alqov pragmatikasining yana bir muhim jihati shundaki, alqov aytish huquqi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida teng taqsimlanmagan. O'zbek lingvomadaniyatida to'laqonli olqish va fotiha berish huquqi an'anaviy ravishda yosh va maqom jihatidan ulug' shaxsga tegishli: ota-ona farzandga, keksa yoshga, ustoz shogirdga alqov beradi. Teskari holatda esa alqov so'rash akti qo'llanadi («Duo qiling», «Fotiha bering») bu o'zbek muloqot tizimidagi alohida iltimos-nutqiy aktdir. Ingliz lingvomadaniyatida bunday qat'iy tengsizlik kuzatilmaydi: «good luck» yoki «best wishes» har qanday yoshdagi va maqomdagi so'zlovchi tomonidan aytilishi mumkin. Demak, o'zbek alqov tizimi jamiyatdagi yosh va maqom tartibini aks ettiradi va uni mustahkamlab boradi, ingliz tizimida esa bu xususiyat ancha kuchsiz bo'ladi.

O'zbek alqovlarining semantik o'zagini baraka, rizq, qut, umr va oq kabi madaniy kodlar tashkil etadi. Ulardan baraka eng keng qamrovlisi bo'lib, islom madaniy doirasida «ilohiy manbali, moddiy sohada mo'l-ko'llik, ruhiy sohada esa farovonlik va baxt keltiruvchi ezgu kuch» sifatida ta'riflanadi[7]. Mazkur kod o'zbek tiliga xos emas, balki butun islom lingvomadaniy makoni uchun umumiydir: arab tilidagi tabrik formulasi mabrūk / mubārak ham aynan shu b-r-k o'zagidan yasalgan bo'lib, «ko'payish, ziyoda bo'lish» ma'nosini saqlaydi va mazmunan «(bu yutuq) ziyoda bo'lsin!» degan iltijoga teng[8]. Bu qiyos baraka kodining butun islom madaniy hududiga xosligini tasdiqlaydi: inglizcha blessing va abundance so'zlari ilohiy manba hamda moddiy-ma'naviy mo'l-ko'llikni alohida-alohida ifodalaydi, baraka esa ularni yaxlit birlashtiradi, natijada tarjimada qisman bo'shliq (lakuna) yuzaga keladi. Rizq kodi taqdirga bitilgan nasiba tushunchasiga tayanadi: «Rizqing butun bo'lsin» alqovi har bir insonning nasibasi azaldan belgilangan degan e'tiqodga tayanadi; inglizchada esa bunday so'z yo'q: daily bread faqat diniy matnlarda uchraydi, provision esa oddiy so'z bo'lib, unda taqdir ma'nosi umuman yo'q. Qut kodi

[1] Jumanazarov U. "Oltin olma, duo ol!", "Duo – oltin emasmi?", "Qo'shgani bilan qo'sha qarisin" // Tarix haqiqati va xalq ijodi badiiyati. – T.: "Elmus Press Media", 2007. – B. 3–28.

[2] Richardson S. Clarissa, or the History of a Young Lady. – London: Penguin Classics, 1985. – 643 p.

[3] Brontë Ch. Jane Eyre. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 592 p.

[4] Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – P. 12–15.

[5] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – P. 25–65.

[6] Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 101–129.

[7] Colin G.S. Baraka // Encyclopaedia of Islam. 2nd ed. / Ed. by H.A.R. Gibb et al. – Leiden: Brill, 1986. – P. 1032.

[8] Badarneh M.A., Migdadi F., Al-Jahmani M. Invoking divine blessing: The pragmatics of the congratulation speech act in university graduation notebooks in Jordan // Pragmatics. – 2022. – Vol. 32, No. 2. – P. 168–169.

eng qadimiy qatlamga mansub: qadimgi turkiylarda qut – xoqonga va xalqqa xudo tomonidan beriladigan fayz-u omad bo'lgan; bu tushuncha bugungi «Qutlug' bo'lsin!» alqovida yashab kelmoqda. Umr kodi uzoq hayot tilashning alohida qadriyat maqomini ko'rsatadi: «Umringiz uzoq bo'lsin» tipidagi formulalar o'zbek alqovlarining eng faol qismiga kiradi; ingliz kundalik muloqotida esa long life tilagi marosim nutqidan tashqarida deyarli qo'llanmaydi.

Shunday qilib, har bir kod o'z tarixiy qatlamiga ega: qut qadimgi turkiy davrdan, baraka va rizq islomdan, oq esa umumturkiy ranglar ramziyatidan meros bo'lib kelgan. Oq kodi poklik va ezgulik ramzi sifatida «oq yo'l», «oq fotiha», «oq sut bergan ona» kabi birikmalarda voqelanadi; uning so'zma-so'z tarjimasi (white road) madaniy semantikani butunlay yo'qotadi, funksional ekvivalent sifatida qo'llanuvchi have a safe journey esa fotiha-duo semasini neytrallashtiradi. E'tiborga molik jihat shundaki, oq kodi alqov tizimida rang belgisi sifatida emas, balki aksiologik belgi sifatida ishlaydi: u yo'lning xavfsizligini emas, niyatning pokligini va oq fotiha bergan jamoaning roziligini ifodalaydi.

Ingliz tilida alqov birliklari tarixan diniy mazmunini yo'qotib borgan. Buni Goodbye so'zi tarixi ham tasdiqlaydi: xayrlashuv formulasi Goodbye aslida «God be with you» duosining qisqargan shaklidir. Bugungi ingliz muloqotida diniy alqov cheklangan o'rinlarda (cherkov marosimi, rasmiy nutq, God bless you kabi turg'un formulalar) saqlanadi, kundalik muloqotda esa dunyoviy tilaklar (good luck, all the best) ustunlik qiladi. O'zbek tilida esa diniy va dunyoviy qatlamlar hozirgacha yonma-yon yashaydi: bir so'zlovchi bitta suhbatda ham duo, ham tilak qo'llashi odatiy holdir.

Qiyosiy tahlil natijasida ekvivalentlikning uch darajasini ajratish mumkin bo'ldi. Birinchisi – to'liq funksional ekvivalentlik: universal vaziyatlardagi tilaklar (Congratulations! – Tabriklayman!; Good luck! – Omad tilayman!; Happy birthday! – Tug'ilgan kuningiz bilan!). Bu guruhda ikki til birliklari illokutiv kuch, qo'llanish vaziyati va stilistik bo'yoq jihatidan mos keladi. Ikkinchisi – qisman ekvivalentlik: madaniy kodning bir qismi saqlanuvchi holatlar («God bless you – Xudo yorlaqasin»), bunda umumiy diniy yo'nalish saqlanadi, biroq kodning milliy to'ldiruvi (baraka, rizq semalari) uzatilmaydi. Uchinchisi – nol ekvivalentlik, ya'ni mutlaq lakuna: marosimiy formulalar («Oq fotiha berdik», «Ko'z tegmasin») inglizchada muqobiliga ega emas, chunki ular tayanadigan marosim yoki e'tiqod ingliz madaniyatida mavjud emas. Lakunarlik bir tomonlama emas: ingliz tilidagi «Bless you» (aksa urganda) formulasi o'zbek muloqotida ekvivalentga ega emas, chunki bu vaziyatning o'zi o'zbek etiketida alqov talab qilmaydi; xuddi shuningdek, break a leg kabi teskari-tilak (sahna oldidan omad tilashning tabulashgan shakli) o'zbek tizimiga yot.

Uch daraja bo'yicha to'plangan birliklarning qiyosiy tasnifi 2-jadvalda umumlashtirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qisman ekvivalentlik eng katta guruhni tashkil etadi va aynan shu zonada tarjimaviy yo'qotishlar – diniy muqaddaslik ma'nosining kuchsizlanishi, madaniy kodning uzatilmasligi, janr va tinglovchining farqi jamlangan.

2-jadval. **Alqov birliklarining ingliz tilidagi muqobillari bilan qiyosiy-funksional tasnifi**

T/r	Alqov birligi	Qo'llanish vaziyati	Ingliz tilidagi muqobili	Ekvivalentlik darajasi
1	Omad tilayman!/ omad yor bo'lsin	tilak; kundalik muloqot	Good luck!	to'liq ekvivalentlik
2	Tug'ilgan kuningiz bilan!	tilak; bayram tabrigi	Happy birthday!	to'liq ekvivalentlik
3	Xudo yorlaqasin/ Alloh qo'llasin	duo; minnatdorchilik, xayrlashuv	God bless you	qisman ekvivalentlik: baraka–rizq semasi uzatilmaydi
4	Xudo xohlasa/ Inshaalloh	duo; kelajakka oid reja-niyat	God willing / hopefully	qisman ekvivalentlik: diniy sema kuchsizlanadi
5	Alloh rahmatiga olsin	duo; motam vaziyati	Rest in peace / My condolences	qisman ekvivalentlik: janr va adresat siljigan
6	Oq yo'l/Yo'lingiz bexatar bo'lsin	tilak (duo unsuri bilan); safar oldi vaziyati	Have a safe journey	qisman ekvivalentlik: oq kodining madaniy ma'nosi yo'qoladi

T/r	Alqov birligi	Qo'llanish vaziyati	Ingliz tilidagi muqobili	Ekvivalentlik darajasi
7	Qo'sha qaringlar/ Qo'shganingiz bilan qo'sha qaringlar	olqish; nikoh marosimi	May you grow old together (erkin tilak)	qisman ekvivalentlik: formulaviy maqom yo'qoladi
8	Oq fotiha berdik	olqish-duo qorishuvi; fotiha marosimi	–	nol ekvivalentlik (mutlaq lakuna)
9	Ko'z tegmasin/Yomon ko'zdan asrasin	duo-tilak; maqtovdan so'ng himoya funksiyasi	–	nol ekvivalentlik (mutlaq lakuna)
10	Katta yigit (qiz) bo'lsin/ Umri rizqi bilan bergan bo'lsin	olqish; farzand tug'ilishi munosabati bilan	–	nol ekvivalentlik (mutlaq lakuna)

Lakunar birliklarni uzatishda uchta strategiya samarali ekani aniqlandi. Birinchisi – funksional analog: vaziyat bo'yicha eng yaqin birlikni tanlash (Oq yo'l! – Have a safe journey!), bunda madaniy kod qurbon qilinadi, biroq kommunikativ maqsad saqlanadi. Ikkinchisi – transliteratsiya va izoh birikmasi: badiiy va ilmiy tarjimada baraka, fotiha kabi kodlarni asl shaklida saqlab, izohda ochish; bu strategiya matnning milliy koloritini saqlaydi. Uchinchisi – kompensatsiya: yo'qolgan diniy ma'noni matnning boshqa nuqtasida boshqa vositalar bilan tiklash. Strategiya tanlovi matn tipiga bog'liq: axborot matnida funksional analog, badiiy tarjimada transliteratsiya-izoh va kompensatsiya ustuvor bo'lishi maqsadga muvofiq.

Olingan natijalarni amalda qo'llash doirasi ham keng. Lug'atchilikda alqov formulasini oddiy tarjima muqobili bilan berish yetarli emas: lug'at maqolasi to'rt qismli tuzilishi lozim – funksional muqobil, qo'llanish vaziyati, birlik tavsifi va madaniy izoh (masalan, «oq yo'l» uchun: have a safe journey safarga kuzatish –tilak, duo unsuri bilan oq – poklik ramzi, fotiha an'anasi). Ingliz tilini o'rganuvchi o'zbek auditoriyasi uchun esa aksincha: ona tilidagi alqov odatlarini inglizchaga aynan ko'chirish nutqda o'rinsiz, vaziyatga mos kelmaydigan iboralarga olib keladi. Shu bois chet tili va madaniyatlararo muloqot ta'limida alqov tizimini alohida mavzu sifatida o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillarimizdan quyidagicha xulosalar kelib chiqdi: birinchidan, olqish, duo va tilak funksional jihatdan farqlanuvchi, ammo yagona alqov keng qamrovli tizimiga birlashuvchi nutqiy aktlardir; ularni olqish,duo va tilak sifatida o'rganish ham ichki tafovutni, ham yaxlitlikni bir vaqtda ochib beradi; ikkinchidan, o'zbek alqovlarida diniy-ilohiy va folklor-marosimiy qatlamlar ajralmas yaxlitlikda yashaydi; ingliz tilidagi muqobil birliklar esa tarixan dunyoviylashib, odatiy etiket formulalariga aylangan; uchinchidan, baraka, rizq, qut, umr, oq kodlari alqov tizimining milliy o'zagini tashkil etadi va har biri o'z tarixiy-madaniy qatlamiga ega; ularning bir qismi (xususan, baraka) kengroq islom madaniy doirasiga tegishli bo'lib, ingliz tiliga o'girishda qisman yoki mutlaq lakunalarni yuzaga keltiradi; to'rtinchidan, o'zbek alqov tizimi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi tenglik bo'lmagan munosabat orqali jamiyatdagi yosh va maqom tartibini aks ettirib mustahkamlab boradi; ingliz tizimida esa bu xususiyat ancha kuchsiz. Mazkur natijalar qiyosiy lingvokulturologiya, lingvomadaniy birliklar leksikografiyasi hamda madaniyatlararo muloqot amaliyoti uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Rezyume. Maqolada o'zbek tilidagi olqish, duo va tilak birliklari hamda ularning inglizcha muqobillari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu uch birlik yagona alqov tizimining tarkibiy qismlari sifatida o'rganiladi: ularning o'zaro farqi, qo'llanish vaziyatlari va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi. O'zbek alqovlari zamiridagi baraka, rizq, qut, umr, oq kabi madaniy tushunchalar tahlil etilib, ularning bir qismi butun islom madaniy makoniga xos ekani ko'rsatiladi. Ekvivalentlikning uch darajasi belgilanadi, har ikki tomonda uchraydigan lakunalar aniqlanadi hamda bunday birliklarni tarjimada uzatish yo'llari taklif etiladi.

Resume. The article provides a comparative analysis of the Uzbek units olqish, duo and tilak and their English counterparts. These three units are studied as components of a single system of blessing (alqov): their mutual differences, situations of use and pragmatic features are identified. The cultural concepts underlying Uzbek blessings (baraka, rizq, qut, umr, oq) are analysed, and some of them are shown to belong to the wider Islamic cultural space. Three degrees of equivalence are established, lacunae occurring on both sides are identified, and ways of rendering such units in translation are proposed.

Резюме. В статье проводится сопоставительный анализ узбекских единиц olqish, duo и tilak и их английских соответствий. Эти три единицы рассматриваются как компоненты единой системы благопожелания (alqov): определяются их различия, ситуации употребления и прагматические особенности. Анализируются культурные понятия, лежащие в основе узбекских благопожеланий, (baraka, rizq, qut, umr, oq) и показано, что часть из них принадлежит всему исламскому культурному пространству. Установлены три степени эквивалентности, выявлены лакуны с обеих сторон и предложены способы передачи таких единиц при переводе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL TIZIMINI MAYDONLAR ORQALI TUSHUNISH G'OYASINING VUJUDGA KELISHI

Karimov Abdulatif Abdug'aforovich,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda tilni shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan va shartlangan elementlar tizimi deb tushunish ustuvor ahamiyat kasb etadi[1]. Til qurilishi o'ta murakkab va serqirra voqelik bo'lib, u o'z uzvlarining oddiy arifmetik yig'indisidan ko'ra kengroq va chuqurroq mohiyatga ega[2]. Til tizimini maydonlar orqali tushunish va tadqiq etish g'oyasi tilshunoslikning tavsifiy (descriptive) bosqichdan tizimli-struktural (system-structural) bosqichga o'tishida hal qiluvchi rol o'ynadi[3].

Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashishi natijasida yuzaga kelgan «maydon» (field) tushunchasi o'tgan asrning 20-30-yillarida G'arb tilshunosligida shakllana boshladi[4]. Ushbu g'oyaning nazariy ildizlari Vilgelm fon Gumboldtning «tilning ichki shakli» haqidagi ta'limoti hamda Ferdinand de Sossyurning tilni belgi va ishoralar tizimi sifatidagi qarashlariga borib taqaladi[5]. Xususan, Sossyur til elementlari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgandagina ahamiyat kasb etuvchi yopiq tizim ekanligini isbotlab, lisoniy birliklarning bo'linish qonuniyatlarini asoslab berdi[6].

Maydon nazariyasining uzil-kesil shakllanishida nemis tilshunoslari Gunter Ipsen va Yohan Trirning xizmatlari beqiyosdir. G. Ipsen 1924-yilda «mazmuniy maydon» (Bedeutungsfeld) terminini birinchi bo'lib fanga olib kirdi, Y. Trir esa har bir lisoniy birlik o'z ma'nosini faqat yaxlit bir butunlik (maydon) tarkibida oladi, degan g'oyani ilgari surdi[7]. Keyinchalik bu yo'nalish V. Porzig, L. Vaysgerber, A.Yolles kabi olimlar tomonidan rivojlantirilib, tilning leksik-semantik sathini guruhlar asosida o'rganishning metodologik

[1] Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2005. – Б 4.

[2] Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б 12.

[3] Исломов И. Х. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизими. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – Б 12.

[4] Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 30.

[5] Кўрсатилган манба – Б 31.

[6] Исмоилова Д. Р. Турли тизимдаги тилларда жиноят семантик майдони ва унинг лингвокултурологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Андижон: 2023. – Б 10.

[7] Шокиров Ш. И. Турли тизимли тилларда «кўз» лексик-семантик майдони ва уни ташкил этувчи тил бирликлари типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Фарғона: 2020. – Б 23.